

## DAVLAT XIZMATINI TASHKIL ETISH VA UNI O‘TASH MEXANIZMLARI

Milliy universiteti Siyosatshunoslik yo‘nalishi 2-bosqich talabasi  
**Xo‘jaqulova Bonu Husniddin qizi**

### **Annotatsiya**

*Mazkur maqola davlat xizmati va uni o'tash masalalariga oid bo'lib, unda davlat xizmatining mazmun mohiyati, qator olimlar va siyosat arboblarning ayni mavzudagi fikr mulohazalari, davlat xizmati va xizmatchisining turlari, davlat xizmatiga yondashuvlar va ularga xorijiy mamlakatlar huquqiy asoslaridan misollar, davlat xizmatchusining maqomi hamda malaka darajasi, davlat xizmatini o'tash va uning davomiyligi kabi qator masalalar bayon etilgan.*

### **Kalit So'zlar**

*Davlat xizmati, davlat organlari, davlat tashkilotlari, davlat muassasalari, vakolat, huquqiy norma, funktsiya, davlat xizmatchisi, jamiyat, nodavlat-notijorat tashkilotlari (NNT), mahalliy organ, jamoat birlashmalari, davlat boshqaruvi, sektorlash, davlat apparati, tashkiliy-funksional, siyosiy lider, malaka darajasi.*

### **Abstract**

*This article is about civil service and its passing, it contains the essence of civil service, the opinions of a number of scientists and politicians on the same topic, the types of civil service and its employees, approaches to civil service and examples of them from the legal bases of foreign countries, state a number of issues such as the status of the employee and the level of qualification, public service and its duration are described.*

### **Key Words**

*State service, state bodies, state organizations, state institutions, authority, legal norm, function, civil servant, society, NGO, local body, public associations, state administration, sectorization, state apparatus, organizational-functional, political leader, skill level.*

### **Аннотация**

*Данная статья посвящена государственной службе и ее комплектованию, содержит сущность государственной службы, мнения ряда ученых и политиков на эту тему, виды государственной службы и ее сотрудников, подходы к государственной службе и примеры из них. Из правовых основ зарубежных стран излагаются ряд вопросов, таких как статус работника и уровень квалификации, описывается государственная служба и ее продолжительность.*

### **Ключевые Слова**

*Государственная служба, государственные органы, государственные организации, государственные учреждения, власть, правовая норма, функция, государственный служащий, общество, НПО, местный орган, общественные*

*объединения, государственное управление, секторизация, государственный аппарат, организационно-функциональный, политический лидер, квалификация уровень.*

### **KIRISH (INTRODUCTION)**

Davlat xizmati davlat organlari, tashkilot va muassasalari vakolatlarining bajarilishini ta'minlashga qaratilgan, haq to'lanadigan mehnat faoliyatidir. Davlat xizmatining mazmuni shaxs egallab turgan lavozim orqali belgilanadi. Davlat xizmati huquqiy normalar majmuasi hisoblanib, u ma'muriy, mehnat, moliya, fuqarolik va boshqa huquq sohalarining normalarini o'z ichiga oladi.

### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI (LITERATURE REVIEW)**

Professor G. V. Atamanchuk davlat xizmati o'z tadqiqotlarida davlat xizmati masalalarini tahlil qilib, uni "davlatning maqsad va funksiyalarini amalga oshirishda fuqarolarning amaliy va professional ishtiroki" deya ta'riflaydi. Rus olimi Y. U. Tixomirov esa yuqoridagilarga qo'shimcha qilib, "to'xtovsiz professional faoliyatdir" deydi. B. M. Lazerov, V. M. Manoxin kabi olimlar ham o'z asarlarida davlat xizmati va xizmatchisi masalalariga alohida e'tibor qaratganlar. Jumladan, huquqshunos olim B. M. Lazerov davlat xizmatiga shunday ta'rif beradi: "Davlat xizmati - davlatga xizmat qilish, ya'ni uning talabi bilan ma'lum bir pul mukofoti evaziga davlat oldida turgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirish bo'yicha bo'ladigan faoliyatdir". V. M. Maxoninning fikricha, "Davlat xizmati - bu davlat organlarini va boshqa tashkilotlarini tashkil etish va huquqiy tartibga solish bo'yicha davlat faoliyatining bir bo'lagi hisoblanadi. Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati esa davlat oldida turgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishga qaratiladi".

### **TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)**

Xizmat munosabatlarga kirishishiga ko'ra: a) davlat xizmatlari; b) jamiyatni birlashtirish xizmati; c) nodavlat-notijorat tashkilotlar xizmati kabi turlarga bo'linadi. Xizmatni shaxs bilan bog'liq tiplari esa:

- a) davlat organi xizmatchilari;
- b) mahalliy organ xizmatchilari;
- c) davlat korxonasi, muassasa, tashkilotlar xizmaychilari;
- d) nodavlat tashkilotlar xizmatchilari;
- e) jamoat birlashmalari xizmatchilari turlariga bo'linadi.

Davlat xizmati masalasi XX asr 90-yillaridan boshlab davlat boshqaruvini sektorlashning zamonaviy usullarini joriy etish orqali yanada faollashdi.

Davlat xizmati masalasiga turli xil yondashuvlar mavjud bo'lib, quyida ulardan to'rttasini ko'rib chiqamiz.

1. Ijtimoiy yondashuv: ijtimoiy jihatdan foydali bo'lgan faoliyatni olib boruvchi faoliyat.

2. Siyosiy yondashuv: davlat xizmati mavjud siyosiy resurslar va kuch orqali jamiyatning muvozanatini ta'minlashdir.

3. Huquqiy yondashuv: xizmat munosabatlarini huquqiy o'rnatish tartibi bo'lib, majburiyat, vakolat, javobgarlik, cheklov choralarini ishlab chiqishdir.

4. Tashkiliy yondashuv: davlat xizmati davlat apparatini tashkiliy-funksional elementidir (lavozimlarni ishlab chiqish, xodimlarni aniqlash va baholash, vazifa va funksiyalarni taqsimlash).

Huquqiy asos: 1999-yil 23-iyulda qabul qilingan Qozog‘iston Respublikasining "Davlat xizmatlari to'g'risida"gi qonuni 1-moddasida: "Davlat xizmati davlat hokimiyatining vazifalari va funksiyalarini amalga oshirishga qaratilgan davlat organlaridagi davlat xizmatchilarining faoliyatidir". Yoki, 2004-yil 11-avgustda qabul qilingan Qirg‘iziston Respublikasining "Davlat xizmatlari to'g'risida"gi qonuni 3-moddasida shunday deyilgan: "Davlat xizmati davlat organlarida professional asosda amalga oshiriladigan hamda Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yilgan hokimiyat vazifalari, funksiyalari va vakolatlarini bajarishga qaratilgan faoliyatdir".

Davlat xizmatchisi muayyan davlatda nafaqat

- malakali boshqaruvchi;
- alohida maqomli shaxs;
- siyosiy lider

balki davlat vakolati va vazifalarining ijrosini ta'minlaydigan mansabdor shaxsdir.

Davlat xizmatchilari maqomi quyidagilar orqali shakllanadi:

- 1) siyosiy belgilovchi;
- 2) huquqiy ta'sir ko'rsatuvchi;
- 3) ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi;
- 4) iqtisodiy kafolatlovchi.

Davlat xizmatchilarining faoliyatini shakllantirish omiliga ko'ra:

- a) ijro-farmoyish beruvchi;
  - b) ijtimoiy-madaniy faoliyatni amalga oshiruvchi
- kabi turlarga ajratiladi.

Malaka daraja bu davlat xizmatchisiga bir mansabdan ikkinchi mansabni egallashini yoki bir mansabdan boshqa bir mansabga tushishini belgilab beruvchi qoidadir. Masalan, Yevropaning rivojlangan davlatlari aksariyatida davlat mansabi bekor qilinsa-da, mansabni egallagan shaxs ishdan bo'shatilishi mumkin emas. Negaki, xizmatchining malaka darajasi uning uchun himoya bo'lib xizmat qiladi.

Davlat xizmatini o'tash - bu uzoq davom etuvchi jarayon bo'lib, davlat xizmatchisining lavozimga tayinlanishi bilan boshlanib,

- sinov muddati;
- attestatsiya;
- malaka oshirish yoki qayta tayyorlash;
- rag'batlantirish;
- javobgarlik;
- iste'fo yoki nafaqa kabilarni o'z ichiga oladi.

#### **XULOSA (CONCLUSION)**

Davlat boshqaruvida davlat xizmatini tashkil etish masalasiga e'tibor qaratishning yuqorida o'tqazilgan tahliliga asoslanib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- davlat xizmati - davlat organlari vakolatlarining bajarilishini ta'minlashga qaratilganhaq to'lanaigan faoliyat;
- xizmat munosabatlarga kirishishiga ko'ra 3 turga bo'linadi;
- xizmatchilar o'z faoliyat sohasiga ko'ra 5 ta tipdan iborat;
- davlat xizmati masalasiga doir 4 xil yondashuv mavjud;
- davlat xizmatchisi davlat vakolati va vazifalarining ijrosini ta'minlaydigan mansabdor shaxs;
- davlat xizmatchilari faoliyatini shakllantirish 2 omildan iborat;
- davlat xizmatini o'tash uzoq davom etadigan jarayonni o'z ichiga oladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):**

1. Атаманчук Г. В. Сущность государственной службы: история, теория, закон, практика. Монография. 12-М.: Издательство РАГС, 2002 г. с 113.
2. Тихомиров Ю. А. Административное права и процесс: полный курс. М.: Наука, 2016. с 406.
3. Лазарев Б. М. Государственная служба/Б. М. Лазарев; Акад, правовой ун-т при Ин-те государства и права РАН. - Москва: ИГПАН, 1993. с 16.
4. Маханин В. М. Государственная служба, Москва, 1996. с 5.
5. <https://adilet.zan.kz>.
6. <https://minjust.gov.kg>.
7. <https://lex.uz>.